



**AXBOROT XIZMATLARI BUGUNGI KUNDA JAMIYATNING  
BARCHA TARMOQLARIGA BORAYOTGAN VA  
RIVOJLANAYOTGAN SOHASI**

**Shirin Nauryzbayeva**

Kutubnonlik faoliyati 3 kurs talabasi O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti Nukus filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7587906>

**ARTICLE INFO**

Received: 22<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2023

Online: 31<sup>th</sup> January 2023

**KEY WORDS**

Kutubxonalar, madaniyat,  
telekommunikatsiya,  
texnologiya, axborot-resurs  
markazi.

**ABSTRACT**

*Hozirda axborot-kutubxonalar muassasalarining fondlari faqat qog'ozdagi ma'lumotlar bilan to'ldirilmagan. Biroq, vinil disklar va shunga o'xshash audio va video yozuvlar endi eskirgan va ularning o'rnini CD kabi raqamli media egallaydi.*

"Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1729-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining qarori asosida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazining axborot-kutubxonalar muassasalarining tashkiliy-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan Respublika axborot-kutubxonalar sohasi mutaxassislariga uslubiy yordam ko'rsatish.

Ustoz va murabbiy. Bu so'zlar zamirida shunchalik katta ma'no va mazmun borki, uni ta'riflashga ba'zan so'z ham ojizlik qiladi. Zero har qanday inson o'qituvchining oldida qarzdor, murabbiy va ustoz mehri muhtoj. Undan ta'lim oladi, u tufayli kamol topadi.

SHuni mamnuniyat bilan tilga olish kerakki, istiqloq yillarida o'qituvchi va murabbiylik kasbi tom ma'noda qadr va e'zoz topdi. O'tgan yillar davomida shahar va qishloqlarimizda zamonaviy talablarga to'laqonli javob beruvchi maktab, litsey va kasb-hunar kollejlari qad rostladi. Ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, o'quv-mashg'ulot va laboratoriya xonalari tashkil etildi. [1.80]

Bundan tashqari, darslik va qo'llanmalarning yangi avlodini yaratish, malakali kadrlarni tayyorlash yo'lida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni aytib o'tish ham o'rinlidir. SHuningdek, o'z navbatida, axborot-kutubxonalar muassasalarining xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ham sezilarli ishlar qilinmoqda. Bu imkoniyatlar o'qituvchilarga qulaylik bilan birgalikda, chuqur mas'uliyatni ham yuklaydi.

YOsh avlodni teran bilimli va etuk mutaxassis bo'lib etishishlarida malakali o'qituvchilar bilan birgalikda, kitobning, tom ma'noda axborot manbai bo'lgan axborot-kutubxonalar muassasalarining o'rnini beqiyosdir. CHunki bugungi kun zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida o'quv ishlarni axborot-kutubxonalar muassasalarisiz tasavvur qilish mumkin emas.



Hozirda axborot-kutubxona muassasalari fondlari faqatgina qog'oz tashuvchilardagi axborotlar bilangina to'ldirilmaydi. Biroq vinil disklar va xuddi shunday audio va video yozuvlar ham endilikda eskirib, ular o'rnini raqamli tashuvchilar – kompakt-disklar egallamoqda.

Foydalanuvchilar (o'qituvchilar, o'quvchilar va b.sh.) bilan ishlash axborot-kutubxona mutaxassisi faoliyatining yana bir yo'nalishi bo'lib, xizmat ko'rsatishni sifatli amalga oshirish uchun mutaxassis o'zi o'qimishli, bilimli, foydalanuvchi so'rovi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, nashrlarni tanlab, tavsiya qila olishi zarur. Axborot-kutubxona muassasasi mutaxassisining eng muhim fazilatlari bu muomalaga kirishish ko'nikmasining shakllanganligi, kishilar bilan muloqot qila olishi, psixologik va pedagogik tayyorgarligi bo'lishidir. Hozirgi kunda esa, axborot-kutubxona muassasalari mutaxassisi faoliyatida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishi ham muhimdir. Bir so'z bilan aytganda, yangi axborot texnologiyalarning axborot-kutubxona muassasalari hayotiga kirib kelishi mutaxassislarni qayta o'qish va malaka oshirishlarini, ish jarayonida yangi yondashuv va usullarni qo'llashlarini talab qilmoqda.[2.143]

Kutubxonada respublika axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislarning soha bo'yicha malakalarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2015 yil 16–20 mart kunlari YUNESKO Qatnashuv dasturida tasdiqlangan «Ochiq ta'lim manbalarini rivojlantirish va kutubxonalarda hujjatli merosni saqlash» loyihasi doirasida «Hujjatli merosning saqlanishi va ochiqligi» mavzusida seminar-trening tashkil qilindi. Seminarda axborot-kutubxona muassasalari, axborot-resurs markazlari, muzey va arxivlarning nodir nashrlar fondlari bilan ishlovchi mutaxassis va xodimlari ishtirok etdi.

SHuningdek, 5 avgust kuni tasdiqlangan «YUNESKO ning «Jahon xotirasi» dasturi va noyob hujjatli meroslarni taqdim etish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish dasturi» ga asosan 2015 yilning 15–17 sentyabr kunlari kutubxonada o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Mazkur o'quv mashg'ulot YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi hamkorligida tashkil qilinib, unda O'zbekiston Milliy kutubxonasidan 4 nafar, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufidagi axborot-kutubxona markazlaridan 5 nafar, Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi muzeylardan 4 nafar, «O'zarxiv» agentligidan 4 nafar, «Oltin meros» jamg'armasidan 11 nafar, O'zbekiston davlat konservatoriyasidan 1 nafar hamda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasidan 2 nafar, jami 31 nafar mutaxassis ishtirok etdi.

Loyihalar YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi ekspertlari hamda O'zbekiston Milliy kutubxonasi mutaxassislari tomonidan muhokama etilib, tegishli tavsiyalar berildi.[3.48]

Axborot xizmatlari bugungi kunda jamiyatning barcha tarmoqlariga kirib borayotgan va rivojlanayotgan soha sifatida tan olingan. O'zbekistonda ham keyingi yillarda vazirlik, muassasa va idoralar tomonidan axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Fuqarolar va yoshlarning axborot madaniyati va mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni media vositalarda taqdim etilayotgan axborotlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, yoshlarda milliy mentalitetimizga yot bo'lgan xurujlardan himoyalanih immunitetini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanib,



bu axborot-kutubxona tizimiga ham taalluqli. Albatta, axborot-kutubxona muassasalarida ushbu ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yilishi va sifatli xizmat ko'rsatishda axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari malakasini oshirish muhimdir.

Milliy kutubxona tomonidan ishlab chiqilgan «Axborot-kutubxona sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish davrida O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislarning axborot madaniyati va mediasavodxonligini shakllantirish» loyihasi doirasida 2015 yilning oktyabr oyida axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari uchun axborot madaniyati va media savodxonligini shakllantirish bo'yicha 10 kunlik seminar-trening tashkil qilindi.[4.31-34]

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish, axborot-kutubxona xizmatlari turlarini yanada takomillashtirish maqsadida respublikadagi turli vazirlik va idoralar tasarrufidagi axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari malakasini oshirishga yo'naltirilgan xorijiy kutubxonalarga malaka oshirishni tashkil qilish bo'yicha idoralararo qaror loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Respublikaning turli vazirlik va muassasalari tasarrufidagi axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari (20 kishi) xorijiy kutubxonalar ish faoliyati bilan tanishish, tajriba almashish imkoniyati 2012 yil 12–22 noyabr kunlari O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Toshkentdagi Gyote instituti hamkorligida «Islohotlar davrida o'zbekistonlik kutubxonachilar malakasini oshirishga ko'maklashish» loyihasi doirasida Germaniya kutubxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishish amalga oshirildi.

Mutaxassislar malakasini oshirishdagi keyingi qadam, 2014 yil 22 iyundan 1 iyulga qadar respublika axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari (11 kishi) Janubiy Koreyaning Seul shahrida tashkil etilgan xizmat safarida bo'ldi. Safar Koreyaning Kyonxi universiteti tomonidan tuzilgan dastur asosida olib borildi. SHuningdek, malaka oshirish doirasida O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamda Kyonxi universiteti kutubxonasi o'rtasida o'zaro hamkorlik shartnomasi (memorandum) imzolandi.[5.88]

Ushbu memorandum doirasida joriy yilning 24 avgustdan – 1 sentyabrgacha o'zbekistonlik (18 nafar) mutaxassislarning (Oliy ta'lim vazirligidan – 4, Xalq ta'limi vazirligidan – 4, Sog'liqni saqlash vazirligidan – 2, Madaniyat va sport ishlari vazirligidan – 1, Respublika yig'ma elektron katalogi markazidan – 2, Milliy kutubxonadan – 5 nafar) ikkinchi guruhi Koreyaga tashrif buyurdilar.

Mutaxassislar Koreyaning yirik kutubxonalari faoliyatini o'rganish bilan birga, ta'lim muassasalari kutubxonalari, kutubxonachilik uyushmalari bilan ham yaqindan tanishishdi.

SHuni aytish joizki, xorijiy xizmat safarlaridan ko'zlangan asosiy maqsad, mutaxassislar malakasini oshirish, o'zaro tajriba almashish bo'lsa, bunday xizmat safarlarida olingan bilimlarni axborot-kutubxona muassasalarida tadbiq qilish ko'zlangan yakuniy natijaga erishishni talab etadi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi mutaxassislari Germaniya safaridan olgan bilimlari va tajriba almashish natijasida Milliy kutubxona faoliyatiga va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan:

– kutubxona foydalanuvchilari uchun eng yangi, dolzarb mavzulardagi hamda ko'p so'raladigan adabiyotlarni o'qish zallarida ochiq tarzda joylashtirishni kengaytirdi (35 mingdan ziyod);



- kutubxona fondini shakllantirish uchun foydalanuvchilarning o'zlarini ishtirok ettirib, fondni zaruriy adabiyotlar bilan to'ldirish uchun kutubxona veb-saytida «Buyurtma» onlayn-dasturini ishlab chiqdi;
- kutubxona veb-saytida AAKT-veb dasturi orqali elektron katalogidan foydalangan holda, zarur adabiyotlarga buyurtma berishni yo'lga qo'ydi;
- imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun xizmat ko'rsatishni yanada kengaytirish maqsadida, ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun Lui Brayl yozuvidagi kitoblar fondini shakllantira boshladi (Milliy kutubxonada shu choqqacha bunday maxsus adabiyotlar fondi bo'lmagan);[6.215]
- kutubxona o'zining vaqtli matbuot nashrlari («Turkestanskije vedomosti», «Xalq so'zi» gazetalari, «SHarq YUlduzi» - «Zvezda Vostoka», «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar - Общественные науки в Узбекистане» jurnallari) elektron kolleksiyasini yarata boshladi.

SHu bilan birga, xizmat safari natijalariga ko'ra, mutaxassislar tomonidan axborot-kutubxona faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan, ya'ni kutubxonaning audio va video resurslariga RFID 3M™ DTsD-2 rusumli metkalarini tadbiiq qilish, kutubxonada xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini joriy etish maqsadida, kichik mul'timedia studiyasini (ovoz yozish, video va foto montaj qilish, foto studiya) tashkil qilish, adabiyotlarni berish kafedralarida kutubxona resurslariga berilgan buyurtmalar holatini ko'rsatib turuvchi elektron tablolarini joylashtirish kabi takliflar ham bildirildi.

Milliy kutubxona bir qator vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda, «Axborot-kutubxona muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish haqida» Qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritgan bo'lib, u o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilmoqda. Loyihada axborot-kutubxona muassasasi mutaxassislari uchun bir va uch oylik qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari Milliy kutubxona bazasida hamda viloyat axborot-kutubxona markazlari negizida o'quv-maslahat markazlarini tashkil etilishi belgilangan.[7.214]

SHuningdek, bugungi kunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan axborot-kutubxona faoliyati sohasida Maxsus vakolatli davlat organini belgilash bo'yicha ishlar yakunlanmoqda. Ushbu masala hal etilsa, sohamizda o'z echimini kutib turgan qator ishlar hal etiladi. O'ylaymizki, mamlakatimiz axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirishga, shaxsiy ijodini rivojlantirishga, davr talabi bilan o'z bilimi va malakasini muntazam yangilab borishga qaratilgan soha mutaxassislarining malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi yaratiladi.

### References:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
2. Абдуллаев М. Маданиятшунослик асослари. -Т.: "Фарғона", 1998 й.
3. Абдуллаев М., Умаров Е., Очилдиев А., Маданиятшунослик асослари. -Т.: Турон-иқбол, 2006 й.
4. М.Ешов. Halq so'zi. 17 fevral` 2021 yil
5. Юлдошев Ч., Усмонов С. Основы педагогической технологии. - Ташкент, - Наука, 2001.



6. Ишмухаммедов Р., Абдукодиров А. Инновационные технологии в образовании. – Ташкент, – Наука, 2008.

7. Давлетшин М. Г. Психология современного школьного педагога. - Ташкент, - Узбекистан, 1999.